

HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI

*B. Axmedov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi zamon talablariga mos keluvchi harbiy kadrlarni tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samrali foydalanishg, harbiy xizmatchilarni harbiy-kasbiy mahoratlarini oshirish va qo'l ostidagi bo'ysinuvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'z bilim va mahoratlarini qo'llay olishi bo'yicha ayrim ko'rsatmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: harbiy kadrlar, intellektual qobiliyat, harbiy pedagogika, bilim, ko'nikma, malaka.

doi: <https://doi.org/10.2024/hyog4661>

Har sohada bo'lgani kabi, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Harbiy kadrlarga qo'yiladigan talablar oshib bermoqda. Chunki hozirgi harbiy xizmatchilar faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o'z bo'ysinuvchilariga tarbiya va ta'lim bera oladigan pedagog bo'lishi zarur.

Bu ishni amalga oshirishda harbiy fanlar qatori ijtimoiy fanlarning, jumladan harbiy pedagogikaning ham ahamiyati beqiyosdir. Chunki o'z bo'ysinuvchilariga ta'lim va tarbiya berish bo'yicha yetarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmay turib zamonaviy talablarga javob beruvchi harbiy mutaxassisni tayyorlash ishini samarali amalga oshirish mumkin emas.

Hozirgi kunda «harbiy pedagogika» pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida boshqa fanlar bilan hamkorlikda taraqqiy etmoqda.

Harbiy pedagogika harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo'lishlari, tinchlik davrida va urush sharoitida o'z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma'naviy, siyosiy va jangovar sifatlarni, jangovar mahoratni shakllantirish, aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlantirish, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Harbiy pedagogikaning asosiy toifalari quyidagilardan iborat:

¹ Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich, zaxiradagi podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi, Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi

Tarbiya – ilmiy dunyoqarash, ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar, axloqiy munosabatlar, jangovar va kasbiy sifatlar, borliqqa estetik munosabat, jismoniy va ruhiy kuchini rivojlantirish maqsadida harbiy xizmatchining ongi, ruhiyati, irodasiga maqsadli, belgilangan tizim asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir.

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida harbiy xizmatchilarni xizmat va jangovar vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan maqsadli va belgilangan tizim asosida qurollantirish jarayoni.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida egallangan va tizimga solingan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui.

Rivojlanish – harbiy xizmatchining aqliy va jismoniy imkoniyatlarining bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar xususiyatlari va harbiy xizmat sharoitlariga muvofiq maqsadli takomillashuvi jarayoni.

Ruhiy tayyorgarlik – harbiy burchini bajarish, turli sharoitlarda qo'yilgan vazifalarni ado etish uchun harbiy xizmatchining doimiy ichki tayyorligi va yuksak hissiy-irodaviy turg'unligini ta'minlash bo'yicha maqsadli ravishda unda ruhiy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

Mustaqil tarbiya – harbiy xizmatchining ijtimoiy va xizmat burchini muvaffaqiyatli ado etishi uchun zarur bo'lgan sifatlarini o'zida shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha maqsadli ongli faoliyati.

Mustaqil ta'lim – harbiy xizmatchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, chuqurlashtirish va takomillashtirish bo'yicha maqsadli mustaqil ishi.

Bilim – borliq, voqea va hodisalarning, ularning aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo'lishi.

Ko'nikma – ish-harakatlarning puxta egallanganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishi.

Malaka – harbiy xizmatchining o'z vazifalarini bajarishga tayyorlik darajasini ko'rsatadi hamda bilim va ko'nikmalaridan samarali foydalanishda, ularni yangi va murakkab sharoitlarda to'g'ri va muvaffaqiyatli qo'llay olishida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni tayyorlash, harbiy qismlar va bo'linmalarining jangovar tayyorgarligini oshirishda ofitserlarning, komandir va tarbiyachilarning harbiy-pedagogik bilimlari darajasiga qo'yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Shu bilan birga harbiy pedagogikaning vazifalari doirasi ham kengayib bormoqda.

Harbiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

♦ harbiy-pedagogik jarayonning mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini va uning tarkibiy qismlari bo'lmish ta'lim, tarbiya, ruhiy tayyorgarlik, rivojlanish, mustaqil tarbiya, mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish;

♦ jamiyatda va Qurolli Kuchlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar asosida, shuningdek jangovar texnika va qurol-yarog'ning takomillashuvi, jangni olib borish usullari, shaxsiy tarkibdagi miqdor va sifat o'zgarishlari, jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish vazifalaridan kelib chiqib ta'lim va tarbiya printsiplarini aniqlash, shakllari va metodlari rivojlantirib, takomillashtirib borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish;

♦ turli toifadagi harbiy xizmatchilar bilan turli sharoitlarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta'lim va tarbiya printsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlarini aniqlash va asoslash;

♦ qo'shin turlarining, turli ixtisoslikdagi harbiy mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

♦ ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish hamda amalga oshirish shakllarini takomillashtirish va rivojlantirish, harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar ta'limi va tarbiyasi darajasini aniqlash, tekshirish va baholashning samarali yo'llarini tadqiq qilish;

♦ harbiy-pedagogik jarayonning rivojini bashorat qilish va rejalashtirish;

♦ didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida harbiy xizmatchilar bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarning yuksak harbiy-professional tayyorgarlik darajasiga ega bo'lish vaqtini qisqartirish yo'llarini, usullarini va vositalarini izlash va ularni qo'llash;

♦ harbiy jamoalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonida ularni hisobga olish;

♦ jangovar tayyorgarlik va harbiy intizomni, harbiy xizmatchilarning siyosiy faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishish yo'llarini o'rganish;

♦ harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar o'rtasida musobaqa tashkil etishning, sog'lom raqobat muhitini yaratishning pedagogik shartlarini aniqlash;

♦ jamoani jipslashtirish, unda nizom talablariga xos o'zaro munosabatlarni, sog'lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o'rganish va boshqalar.

Harbiy mutaxassis tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirish omillardan biri – bu jarayonga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdir.

Qator yillar davomida pedagoglar tomonidan dolzarb didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish muammosiga yetarli e'tibor berilmagan. Biroq keyingi yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi, turli sohada mutaxassislar tayyorlash masalasiga quyilayotgan talablarning kuchayishi sababli yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari

O'qitishdagi axborot va telekommunikatsion texnologiyalar – bu ta'lim oluvchilarga kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalari yordamida axborot uzatish usul va metodlarining majmui, bilimlarni o'zlashtirishni tekshirish, real hayotda olingan bilimlarni qayta ishlash va ulardan foydalanishdir.

O'qitishdagi axborot texnologiyasi darajasi, programmalar va apparatlar bilan ta'minlanganlik bilan baholanadi.

Programma ta'minoti boshqaruvchi muhit bo'lib, o'rganuvchi (ta'lim oluvchi)ning harakatlarida sodir bo'ladigan vaziyatga qarab, adekvat (mos) javob beradi. Programma ta'minoti maxsus ishlab chiqilgan yoki o'qitishda qo'llanishga moslangan bo'ladi.

O'qitishda qo'llaniladigan programma ta'minoti vazifasiga qarab quyidagicha tavsiflanadi:

♦ o'quv materialining interaktivligi, mul'timediyiligi, katta hajm va gipermatnligini ta'minlaydigan elektron intellektual darsliklar asosida avtomatik o'qitish tizimlari;

♦ mikromirlar deb ataluvchi fanga yo'naltirilgan muhitlar;

♦ laboratoriya mashg'ulotlari;

♦ trenajyorlar;

♦ ma'lumotnoma tizimlar;

♦ kompyuterli o'yinlar.

Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi o'quv kursini yoki uning katta bo'limini mustaqil o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu tizim o'zida oddiy darslik, masalalar to'plami, laboratoriya mashg'ulotlari, ma'lumotnoma va o'zlashtirilgan axborotni tekshiruvchi ekspert xususiyatlarini mujassamlantirgan:

♦ materialni o'rganishning maqbul yo'lini ta'minlaydi, ya'ni ta'lim oluvchiga nazariyani o'zlashtirish va misollar hamda namunaviy masalalarni yechish ko'nikmalarini ishlab chiqish navbat-tartibini mustaqil tashkil etishiga, shuningdek olgan bilim va ko'nikmalari sifatini o'zi tekshirishiga imkon beradi;

♦ tahlil va tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini singdiradi;

♦ ta'lim oluvchining vaqtini tejashga imkon beradi.

Fanga yo'naltirilgan muhit o'quv programmalarini paketidan iborat bo'lib, ma'lum sinf (tur) ob'ektlari bilan ish ko'rishga, ular o'rtasidagi munosabatni va ob'ektlar hamda munosabatlar ustida olib boriladigan ishlarni bajarishga, shuningdek ob'ektlarni va ularning xossalarni yaqqol tasavvur etishga imkon beradi.

Ta'lim oluvchi muhit ob'ektlari bilan ish ko'rganda topshirilgan didaktik masala maqsadiga erishish, yoki mustaqil tadqiqotlarni bajarishni maqsad qilib qo'yadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari. Bu mashg'ulotlar programmasi kuzatishlar olib borish, turli virtual ob'ektlarni tadqiq etishda o'tkaziladigan kuzatuvlarni son va grafik jihatdan tasavvur etish uchun mo'ljallangan.

Trenajyorlar texnikaviy masalalarni yechishdagi ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Trenajyorlar programmasi: nazariya va ma'lum masalalarni yechish usullari bo'yicha axborot olish; turli darajada mustaqil mashg'ulot o'tkazish; tekshirish va o'z-o'zini tekshirishga imkon beradi.

Tekshiruvchi programmalar bilimlar sifatini tekshirish va baholash uchun mo'ljallangan. Ular ta'lim oluvchiga: javobni umum qabul qilingan shaklga maksimal yaqinlashtirilgan holda kiritish; tekshirish natijalarini saqlash, yig'ish, qog'ozga ko'chirish (raspechatka olish) va statistik tahlil qilish; javobning shakli va sintaktik (gapning tuzilish) savodliligidan qat'iy nazar, adekvat baho olish imkonini berishi lozim.

Ma'lumotnoma tizimlar – bu ma'lumotnomaga o'xshagan turli o'quv axborotlarini saqlash va ta'lim oluvchiga ko'rsatish uchun mo'ljallangan programmalaridir. Bu programmalarida o'quv materiali iyerarxik tartibda (alfavit, miqdor yoki boshqa ko'rinishdagi rivojlanish tartibida) joylashtiriladi va axborotni turli belgilariga qarab tez izlab topish mumkin bo'ladi. Ular kontekst ma'lumotni olish, saqlash va nusxa chiqarishni ta'minlaydi.

Kompyuterli o'yinlar – bu biror voqelik, borliqning modelini aniqlovchi va hayotiy vaziyatni qayta tiklovchi programmalaridir. «Taqlidiy» o'yinlar biror yangi voqelik, borliqqa, masalan, ishbilarmonlik o'yinlariga, tushunib yoki tushunmagan holda tayyorlanishni ta'minlaydi.

Kompyuterli o'yinlarda ikki bosqichni ko'rishimiz mumkin:

♦ yo'naltiruvchi bosqich – bunda o'yin mavzui va xususiyatlari bilan tanishiladi, shuningdek o'rganilayotgan tizimning turli sharoitlardagi holati namoyish qilinadi;

♦ ijro bosqichi – yo'naltiruvchi muhitda o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini olishga mo'ljallangan. Oxirgi bosqichda turli mashqlar va zarur harakatlar ko'p qayta takrorlaniladi.

Kompyuterli o'yinlar o'qitishda yangicha yondoshishlarni amalga oshirish va o'qitish mohiyatini jiddiy boyitishga imkon beradi.

Axborot texnologiyalari ta'lim oluvchilarni nafaqat o'qitish, balki kompyuter injiniringiga o'rgatishi ham lozim. Kompyuter injiniringi – ishlab chiqarish mutaxassislari foydalanadigan, injenerlik masalalarini hisoblash texnikasi yordamida amaliy yechish metodlari va vositalari majmuidan iborat.

Xulosa qilib aytganda hozirgi zamonaviy harbiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarning samarasi o'laroq yaqin yillar davomida harbiy xizmatchilarimizning

nufuzi tobora oshib bormoqda. Buning yaqqol misoli tariqasida oxirgi besh yil mobʼaynida Oʻzbekiston harbiylari nufuzli Halqaro armiya oʻyinlarida peshqamlar qatoridan joy olganini misol keltirsak mubolagʻa boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- [1]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgust kunidagi 3898-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining maʼnaviy-maʼrifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida” gi Qarori.
- [2]. “Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari”. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 1996 yil.
- [3]. A.Sotib Oldiyev, A.Karimjonov. “Harbiy pedagogika”. Toshkent. “Sharq”, qayta ishlangan nashr 2009 yil.